

**Guliston Davlat Pedagogika
Instituti pedagogika fanlari
nomzodi, dotsent Bolibekov Alisher
Abdusalomovich taqrizi ostida**

**Fayziyeva Azizaxon Karim qizi
Sirdaryo pedagogika kolleji o‘qituvchisi,
Guliston Davlat Pedagogika Instituti
magistranti
+998951222396
azizafayziyeva51@gmail.com**

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA INKLYUZIV TA’LIMNI RIVOJLANTIRISH SHART-SHAROITLARI, INKLYUZIV TA’LIMGA OID QONUNLAR

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada bugungi kunda yurtimizda imkoniyati cheklangan bolalar ta’lim-tarbiya olishlari uchun qilinayotgan ishlar, inklyuziv ta’lim to‘g‘risidagi qabul qilingan qonunlar. Bu sohada bugungi kundagi muammolar va kamchiliklar, tarbiyachilar salohiyati va maktabgacha ta’lim tashkilotlarida yaratilgan shart-sharoitlar haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: Imkoniyati cheklangan, qonun, inklyuziv ta’lim, nogironlik, nogironligi bo‘lgan shaxslar.

АННОТАЦИЯ: В данной статье проводится работа по образованию детей с ограниченными возможностями здоровья в нашей стране сегодня, принятые законы об инклюзивном образовании. Обсуждаются сегодняшние проблемы и недостатки, потенциал педагогов и условия, созданные в организациях дошкольного образования в этой сфере.

Ключевые слова: Инвалидность, право, инклюзивное образование, инвалидность, инвалиды.

\ABSTRACT: This article deals with the education of children with disabilities in our country today, laws on inclusive education have been adopted. Today's problems and shortcomings, the potential of teachers and the conditions created in preschool education organizations in this area are discussed.

Key words: Disability, law, inclusive education, disability, disabled people.

KIRISH.

Zamonaviy va demokratik jamiyatlarda “ta’limda imkoniyatlar tengligi” tamoyilini qabul qilish taraqqiyotning muhim ko‘rsatkichidir. Inson huquqlari, ta’limda imkoniyat tengligi, zamonaviy ta’lim, demokratik jamiyat kabi tushunchalarni hisobga olgan holda, alohida ehtiyojli shaxslarni tarbiyalash jamiyatda qanchalik muhim ekani yanada yaqqol namoyon bo‘lmoqda.

Har bir insonning o‘zgaruvchan dunyoga moslashishi va hayotning bir qismiga aylanishi, uning bir qismi bo‘lish uchun ta’lim kerak. Ta’lim hayotning katta qismidir. Demokratik jamiyatlarning asosiy shartlaridan biri ta’limda teng imkoniyatlar tamoyilidir.

Juda uzoq vaqt davomida imkoniyati cheklangan bolalarni maxsus maktabgacha ta'lim tashkilotlarida yoki maxsus maktablarda o'qitish samarali deb hisoblanib kelindi. 1970-1980 yillarga kelib jahon miqyosida insonparvarlik va kamsitilishlarga yo'l qoymaslik g'oyasining ilgari surilishi imkoniyati cheklangan bolalarga e'tiborni yanada yaxshilanishiga olib keldi.

Insoniyatning butun hayotini hisobga olsak, ba'zi davrlar psixologik va fiziologik rivojlanish nuqtai nazaridan tanqidiy davrlar sifatida qaraladi.

Ma'lumki 0-6 yoshni o'z ichiga olgan maktabgacha yoshdagi davr shaxsiyatni belgilaydi. Asosiy bilim, ko'nikma va malakalarni, shakllantirish, egallash va rivojlanishning keyingi yillariga ta'siri tufayli hayotning eng muhim davrlaridan biridir. Inson umri davomida oladigan bilimining 70% ini 5 yoshiga qadar oladi shunday ekan bir davlat ta'limining yuksalishida maktabgacha yosh davri katta ahamiyat kasb etadi

Sharqning mashhur allomalari Ibn Sino, Imom Buxoriy, Abu Nasr Farobiy, Alisher Navoiy, Abdulla Avloniylarning tarbiyaning maqsadlari har bir bola shaxsining rivojlanishiga ta'limning ta'siri to'g'risidagi qarashlari inklyuziv talim rivojlanishining metodologik bazasi xisoblanadi.

Inklyuziv ta'lim alohida yordamga muhtoj bolalarni sog'lom bolalar bilan teng huquqlilik asosida ta'lim-tarbiya olishlarini ta'minlaydi. Shuning uchun ham ahamiyatlidir. UNICEF inklyuziv ta'limni O'zbekiston ta'lim tizimiga kiritish masalalari bilan shug'ullanadi. Inklyuziv ta'lim vazifasi bolalarning qobiliyatlari va holatidan qat'i nazar, ularning barchasiga sifatli ta'lim taqdim etish. Shu bilan birga, inklyuzivlik tamoyili imkoniyatlari cheklangan bolalar ijobiy, ruhiy va ijtimoiy rivojlanishga ega bo'lishlari uchun oilada yashashlari va o'z tengdoshlari bilan birga oddiy maktabda bilim olishlari lozimligini nazarda tutadi. Inklyuziv ta'lim tizimi nogironlar aravachasidagi bola yaqin atrofda joylashgan maktabda ta'lim olishi, o'zlashtirishda qiynalayotgan bo'lsa, o'qish va yozishga o'rganish uchun maxsus yordam olishi, darslarga qatnamay qo'ygan bolaga esa maktabga qaytish uchun tegishli yordam ko'rsatilishini kafolatlaydi. 2020-yil 19-may kuni Oliy Majlis ilk bor inklyuziv ta'lim tushunchasi kiritilgan yangi tahrirdagi „Ta'lim to'g'risida“ gi qonunni qabul qildi. O'zbekiston nogironlar assotsiatsiyasi mutaxassislar bilan birga qonun loyihasining inklyuziv ta'lim tamoyillariga muvofiqligi bo'yicha tahlil o'tkazdi. Qonunning 20- moddasida Jismoniy, aqliy, sensor va ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar uchun ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'lim tashkil etiladi. Inklyuziv ta'limni tashkil etish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasi tomonidan belgilanadi. Vazirlar Mahkamasi tomonidan 12.10.2021 yildagi «Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida»gi 638-son qaror qabul qilindi. Hujjat 13.10.2020 yildagi «Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-4860-son qarorga muvofiq ishlab chiqilgan.

Inklyuziv ta'limning prinsiplari:

1. Insonning qadr qimmatini, uning qobiliyati va yutuq'iga bog'liq emas.
2. Har bir inson o'ylash va xis qilish qobiliyatiga ega.
3. Har bir kishi eshitish va muloqot qilish qobiliyatiga ega.
4. Har bir kishi bir-biriga muxtoj.

5. Shaxsning to‘liq va haqiqiy ta‘lim olishi faqat real hamkorlikda amalga oshadi.
6. Hamma kishilar o‘z tengdoshlarini qo‘llab quvvatlashga muxtoj.
7. Hamma ta‘lim oluvchilarni yutuqqa erishishiga ularning nimadir qila olmasligi emas , balki nimanidir qila olishidir.
8. Hamkorlik qilish kishi hayotini har tomonlama kuchaytiradi.

Inklyuziv ta'lim tizimi quyidagi ta'lim muassasalarni o'z ichiga oladi; maktabgacha ta'lim, umu o'rta ta'lim, o'rta maxsus kasb-xunar va oliy ta'lim.

Inklyuziv talim tizimida quyidagi maqsad va vazifalarning hal etilishi talab etiladi:

- ta'lim tashkilotlarida imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlarning ta'lim olishlari uchun zaruriy psixologik-pedagogik, korreksion sharoitlarni yaratish, ularning imkoniyatiga yo'naltirilgan umumta'lim dasturlari va korreksion ishlarni amalga oshirish orqali ruxiy rivojlanishi, ijtimoiy moslashtirishni amalga oshirish;

- o'quvchilarning ta'limdagi tenglik xuquqini kafolatlash;

- jamiyatning va oilaning faol ishtirokida nogiron va sag'lom bolalarning extiyojlarini qondirish, ijtimoiy xayotga erta moslashtirish;

- imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlarni oilalardan ajramagan holda yashash xuquqini ro'yobga chiqarish;

- jamiyatda imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlarga nisbatan do'stona va mehr-muhabbatli munosabatni shakllantirishdir.

2020–2025 yillarda xalq ta'limi tizimida inklyuziv ta'limni rivojlantirish konsepsiyasida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ko'rsatiladigan ta'lim xizmatlari sifatini yaxshilash bo'yicha quyidagi vazifalar belgilandi:

- alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ta'lim oladigan ta'lim muassasalari binolariga qo'yiladigan talablarni ishlab chiqish va tasdiqlash;

- alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar o'qitiladigan ta'lim muassasalarini zarur adabiyotlar, metodik qo'llanmalar, turli kasblarga o'qitish uchun uskuna va jihozlar bilan ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish;

- alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni o'qitish uchun inklyuziv ta'lim tizimini tashkil etish, umumta'lim muassasalarini maxsus moslamalar shuningdek tegishli kadrlar bilan ta'minlash alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning moslashishi va integratsiyasi uchun maktab-internatlarni bosqichma-bosqich maxsus jihozlar bilan ta'minlash va boshqalar.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Inklyuzif ta'limning O'zbekistondagi rivojlanishi haqidagi xulosam albatta ijobiy bo'ldi. Chunki bu bilan har bir bolaga teng xuquqlilikni berdi. Inklyuziv ta'lim soyasida imkoniyati cheklangan bolaning bilim olish saviyasi oshdi va tengqurlari bilan bir hil dars

olish imkoniyatiga ega bo'ldi. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, demokratik davlatning bosh belgisi har sohada tenglilik tamoyilidir.

Inklyuziv ta'limni amaliyotga joriy etish ustida olib borilgan tajribalardan shu narsa o'z isbotini topdiki, har qanday imkoniyati cheklangan bolalarni nuqsonini ilk yoshdan o'z vaqtida aniqlab mutaxassislarga murojaat qilinsa va maktabga tayyorgarlik ishi o'z vaqtida olib borilsa, abatta ko'zlangan maqsadga erishish mumkin. Ya'ni inklyuziv ta'limning samarasi yuqori darajada bo'ladi.

Bu ta'limning kamchiliklari ham bor albatta. Tanganing ikki tomomonini ko'rish lozim bo'lganidek, buni ham kamchiliklarini aytib o'tishim lozim. Maxsus ehtiyojli bolalarni kuzatib borish uchun tayyorlangan malakali kadrlar – o'qituvchilar, psixologlar, defektologlar, logopedlar yetishmasligi.

Inklyuziv ta'limga muhtoj bolalarning ota-onalari ko'pincha ma'lumotlarga ega emaslar. Natijada, bolalar faqat o'rta ma'lumot olishadi va o'qishni davom ettira olmaydilar. Ta'lim sifatini yaxshilash uchun nafaqat inklyuziv, balki umumta'lim maktablari ham zarur. Bu kabi kamchiliklar vaqtlar o'tishi bilan barham topadi va inklyuziv ta'lim o'z oldiga qo'ygan maqsadiga va samarali bo'lishiga erishadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)

1. Выготский Л.С. Дефект и сверхкомпенсация. // «Проблема дефектологии». М., 1996. –С. 42.
2. Крыжановская Л.М. Психологическая коррекция в условиях инклюзивного образования. Пособие для психологов и педагогов. – М.: «Владос», 2013. 83-б.
3. www.oreins.uz 2021.238-b.
- 4 “Ta'lim to'g'risida"gi yangi qonun va inklyuziya: qanday bo'lishi kerak?“ gazeta.uz (9-iyun 2020, 10-noyabr 2022-yil.
5. <https://lex.uz/docs/-5013007>